



Qarshi Davlat Universiteti
Tabiatshunoslik va Geografiya fakulteti
Geografiya yo`nalishi

III- kurs talabasi

Eshboyeva Risolatning

Jahon iqtisodiy ijtimoiy geografiyasi fanidan

“Avstraliya va Okeaniya”
mavzusida yozgan

KURS ISHI



Mavzu: Avstraliya va Okeaniya

Reja:

Kirish

I BOB. Avstraliya va Okeaniyaga umumgeografik tavsif.

1.1 Geografik o'rni va chegaralari

1.2 Tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari

1.3 Aholi va mehnat resurslari

II BOB. Avstraliya va Okeaniya xo'jaligi rivojlanishining asosiy xususiyatlari.

2.1 Sanoat tarmoqlarining rivojlanishi

2.2 Qishloq xo'jaligining rivojlanishi

2.3 Transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari

2.4 Mintaqaning iqtisodiy rayonlari

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Kirish

Avstraliya so'zi "janubiy" ma'nosini bildiradi. Haqiqatan ham u janubiy yarim sharda joylashgan. Eng kichik materik. Maydonining kattaligiga ko'ra u dunyoda 6-o'rinda turadi ($7,750\,000\text{ km}^2$). Avstraliya maydoni shimoldan janubga 3200 km, g'arbdan sharqqa 4100 km ga cho'zilgan. Iqtisodiy geografik o'rnida uning AQSH, Yaponiya, Horijiy Yevropa davlatlaridan uzoqda joylashganligi noqulayroq. Masalan: AQSH dan 11-15 ming km uzoqda joylashgan. Lekin hozirgi zamonaviy dengiz va havo transporti bu to'siqqa barxam bermoqda.

Avstraliya iqlimiy jihatidan subekvatorial, tropik va subtropik mintaqalarda joylashgan. Iqlimi quruq tropik, sharqiy sohillari esa nam tropik. Buning sabablari Asosiy daryosi Murrey (Darling bilan). Foydali qazilmalarga boy. Asosan temir rudasi, mis, titan, nikel, uran, boksit, oltin, olmos, ko'mir kabilar. Masalan:

Temir rudasi qazib olishda dunyoda 3-o'rinda (yiliga 110 mln t.);

Marganes qazib olishda 3-o'rinda;

Boksit qazib olishda 1- o'rinda;

Nikel qazib olishda 3-o'rinda;

Qalayi va rux qazib olishda 2-o'rinda;

Mis qazib olishda 9-o'rinda.

Ko'mir qazib olishda 6-o'rinda (yiliga 210 mln t.)

Olmos qazib olishda 1-o'rinda turadi.

Aholisi 19,9 mln (2003 y), 20,6 mln (2006 y) kishi yashaydi. Tug'ilish koeffisienti 13 ‰, o'lim 7 ‰ . 15 yoshgacha bo'lganlar jami aholining 20 % ini, 64 yoshdan o'tganlar 13 % ini tashkil etadi. O'rtacha umr 77-82 yosh. 1 ayolga 1,7 bola to'g'ri keladi. YAMD 24630 \$ (2001y).

Avstraliyani 1606 yil golland sayyohi V. Yanszon kashf etgan. Yevropaliklar XVIIIasr oxiridan (1788 yil Sidneyga) ko'chib kela boshlagan. Aholisining 77 % ini Buyuk Britaniyadan ko'chib kelganlarning avlodlari, qolganini Yevropaning boshqa xalqlari, metislar va aborigenlar (50 000 kishi) (250 ming kishi aborigen va metislar) tashkil etadi. Aholisining tabiiy ko'payishi past. Aholisining hozirgacha

migrasiya (yiliga 100-150 ming) katta ta'sir etmoqda. Aholisining o'rtacha zichligi 2,5 kishi bo'lib, u juda notekis joylashgan. Masalan: avstraliya maydonining 65 % ida mamlakat aholisining 1 % i, mamlakatning janubi-sharqini egallagan 10 % maydonida 91 % aholi yashaydi. Eyr ko'li atrofida doimiy aholi umuman yo'q, lekin janubi-sharqiy sohillarida 1 km² joyga 250 tagacha odam to'g'ri keladi.

Urbanizatsiya darajasi materiklar boyicha eng yuqori, ya'ni 86 % (91%) tashkil etadi. Millioner shaharlari 5 ta: Sidney (3,7 mln), Melbrun, Brisben, Pert, Adelida.

Avstraliya hududidan Buyuk Britaniya dastlab surgunchilar uchun joy sifatida foydalangan. XIX asrning 50-60 yillarida oltin konlarini ochilishi avstraliyaga aholini kelishini kuchaytirdi. 1901 yil Avstraliyadagi mustamlakalar birlashtirilib avstraliya Ittifoqini tashkil etdi. 1931 yildan boshlab Avstraliya mustaqillik statusini oldi. Avstraliya ittifoqi – federativ davlat bo'lib, hozirda u 6 ta shtat va 2 ta xududdan tashkil topgan. Buyuk britaniya Hamdo'stligi tarkibiga kiradi. Asosiy siyosiy partiyalari:

1. Avstraliya leyboristik partiyasi (1891 yil).
2. Avstraliya milliy-agrar partiyasi (1916 yil).
3. Avstraliya sosialistik partiyasi (1972 yil tashkil topgan).

Avstraliyani jahonda tutgan o'rni: maydonining 5,2 % ini, aholisining 0,3 % ini, IYAD ni 1,2 % ini, eksport mahsulotlarining 1,1 % ini o'z ichiga oladi.

Avstraliyada mahalliy xom-ashyolarga asoslangan holatda tog'-kon sanoati, metallurgiya mashinasozlik, engil va oziq-ovqat sanoatlari yaxshi rivojlangan.

Avstraliyada AES lar yo'q. Asosan IES lar qisman GES lardan yiliga 200 mlrd kVt/s elektr energiyasi ishlab chiqariladi.

Mamlakatda yiliga 30 mln t. dan ortiq neft qazib olinadi. lekin u ehtiyojni qondirmagani uchun OPEK davlatlaridan neft sotib olinadi. 30 mlrd m³ dan ortiq tabiiy gaz qazib olinadi va uni Yaponiyaga eksport qiladi. Yiliga 240-250 mln t. ko'mir qazib oladi (Nyukasl, Yangi J.Uels) va ortiqchasini asosan Yaponiya va Horijiy Evropaga eksport qiladi. Mamlakatda yiliga 10 mln t. atrofida po'lat quyiladi. 300 ming donadan ortiq engil avtomashinalar ishlab chiqariladi.

Engil sanoatining ip-gazlama, jun-gazlama va ko'n-poyabzal tarmoqlari rivojlangan. Eng yirik to'qimachilik korxonalari Sidney, Adelida, melburn, pert shaharlarida joylashgan. Neftni qayta ishlash va baliq konserva sanoati dengiz boyidagi port shaharlarda rivojlangan. Eng yirik sanoat markazlari: Sidney va Melburn; yiriklari: Brisben, Adelida, Pert, Kanberra, Nyukasl.

Qishloq xo'jaligi. Mamlakatda 500 mln gektardan ortiq erlardan qishloq xo'jaligida foydalaniladi. Qishloq xo'jaligidagi etakchi tarmoq chorvachilikdir. Avstraliyada 30 mln bosh qoramol, 150 mln bosh qoy (Xitoydan keyin 2-o'rinda), 2,5 mln bosh cho'chqa boqiladi. Mamlakatda yiliga o'rtacha 4 mln t. go'sht, 8 mln t. sut tayyorlanadi. Avstraliya "shipsteynz"larida merinos qoylari boqiladi. Mazkur davlatda yiliga 800 000 t.dan ortiq mayin qimmatbaho jun etishtiriladi.

Avstraliyada yiliga 20 mln t. dan ortiq g'alla etishtiriladi, uni 16 mln t. sini bug'doy tashkil etadi. Avstraliya bug'doy eksporti boyicha dunyoda AQSH, Kanada, Fransiyadan keyin 4-o'rinda turadi. Bug'doyni asosan Xitoy va Janubi-G'arbiy Osiyo davlatlariga eksport qiladi. Avstraliyada yiliga 200 000 t. dan ortiq paxta tolasi etishtiriladi. Paxta etishtirish boyicha avstraliya dunyoda 10-o'rinda turadi. Paxta tolasi avstraliyani o'zida qayta ishlanadi.

Transporti. Avstraliya jahonda temir yo'llarning uzunligi boyicha (6-o'rin) ham, avtoyo'llarning uzunligi boyicha ham 1- o'nlikka kiradi. Temir yo'llarning umumiy uzunligi 41 ming km, avtoyo'llarning uzunligi 900 000 km. mamlakat ichida yuk va yo'lovchi tashishning $\frac{3}{4}$ qismi avtotransportga to'g'ri keladi. Yuk aylanmasining asosiy qismi dengiz transporti hissasiga to'g'ri keladi.

Eng yirik universal dengiz portlari: Sidney, Pert, Gladston, Dampir. Ko'mir va ruda porti port-Xedlend.

Tashqi savdo aylanmasi 50 mlrd \$ ni tashkil etadi. Uning 60 % i eksportga, 40 % i importga to'g'ri keladi. Asosiy savdo sheriklari: AQSH, Yaponiya, G'arbiy Evropa, Buyuk Britaniya. Keyingi paytlarda Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarining tashqi savdodagi o'rni o'sib bormoqda.

Asosiy eksporti: ko'mir, tabiiy gaz, temir, alyuminiy, uran, mis, nikel, marganes, bug'doy, shakarqamish, engil sanoat mahsulotlari, charm, go'sht, sut, yuqori texnologiya sanoat mahsulotlari.

Asosiy importi: mashina va jihozlar, sanoat mahsulotlari, neft, ximiya sanoati mahsulotlari. Pul birligi – Avstraliya dollari.

I BOB Avstraliya va Okeaniyaga umumgeografik tavsif

1.1 Geografik o'rni va chegaralari

Avstaraliya va Okeaniyada mustaqil davlatlar soni ancha kam bo'lib, ularning barchasi faqat XX asrning ikkinchi yarmida tashkil topgan. Ushbu geografik obyektlarning umumiy maydoni taxminan 8,6 mln kv.km. Aholisi atigi 32 mln. kishi. Eng katta davlat Avstraliya hisoblanadi. U dastavval, Avstraliya Ittifoqi nomini olgan, so'ngra 1951 yilda to'la mustaqillikka erishgan. Ammo hozir ham u rasmin Buyuk Britaniya Hamdo'stligiga qaraydi. Avstraliya federativ davlat, u 6 ta shtatdan iborat. Yangi Zelandiya ham 1951 yilda mustaqillikni qo'lga kiritgan. Uning maydoni 271 ming kv.km, aholisi 4 mln ga yaqin.

Shunday qilib, Avstraliya va Yangi Zelandiya ushbu regeonning eng yirik davlatlaridir (Avstraliya bir materikni to'liq egallagan dunyodagi yagona mamlakatdir). Papua-Yangi Gviniya ham Tinch okeanining janubidagi katta davlatlar qatoriga kiradi. U Yangi Gviniya orollarining sharqiy qismi bilan yana 600 dan ko'proq orollarni o'z ichiga oladi (uning maydoni 462 ming kv.km, aholisi 4,5 mln. kishi). Papua-Yangi Gviniya 1975 yilda mustaqillikka erishgan Hamdo'stlik tarkibidagi davlatdir.

Solomonov orollari alohida davlat maqomida 1978 yilda, Vanuatu Respublikasi 1980 yil, Fidji Respublikasi 1987 yilda, Palau Respublikasi 1994 yilda tashkil topgan. Shu bilan birga, AQSH va Fransiya qaramog'idagi kichik hududlar saqlanib qolgan.

Avstraliya (lotincha australis - janubiy) – Janubiy yarim sharda joylashgan materik.

Avstraliya shimoldan janubga $10^{\circ}41^I$ (York burni) bilan, $39^{\circ}11^I$ (Janubi-sharqiy burni) janubiy kengliklar oralig'ida 3200 kmga, g'arbdan sharqqa 4100 kmga $113^{\circ}05^I$ sharqiy uzoqlik (Stip-Poynt burni) bilan $153^{\circ}34^I$ (Bayron burni) sharqiy uzoqliklar oralig'ida cho'zilgan. Maydoni: 7682 ming kv.km (Tasmaniya, Kenguru. Melvill va boshqa orollar bilan 7704, 5 ming kv.kmga yaqin) Avstraliya materiklari ichida eng kichigi. Janubiy tropic chizig'I Avstraliyaning deyarli o'rtasidan kesib o'tadi. Materikni g'arb, shimol va janubdan Hind okeani, sharqdan Tinch okeani dengizlari o'rab turadi. Qirg'oqlari unchalik parchalanmagan, shimolda Karpentariya, janubda Katta Avstraliya qo'ltiqlari bor. Katta yarim orollari – shimolda Arnamlend va Keyp-York. Tasmaniya oroli Avstraliyadan kengligi 224 km li Bass bo'g'ozi orqali ajralib turadi. Avstraliya shimolda yirik orollardan Yangi Gvineya joylashgan. Avstraliyaning sharqiy sohili bo'ylab behisob marjon orollaridan tashil topgan Katta To'siq Rifi 2300 km masofaga cho'zilib yotadi. Dunyoning quruqlik o'tgan chegarasiga ega bo'lmagan mamlakatlardan biri.

Iqtisodiy geografik o'rni uning janubiy yarim sharda yirik materiklar, regionlar va mamlakatalardan ancha olisda joylashganligi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, zamonaviy dengizlar havo transportining yuqori darajada rivojlanganligi mamlakatning jahonning barcha regionlari, davlatlari doimiy aloqada bo'lib turishligini ta'minlaydi.

Okeaniya Tinch okeanining markaziy va janubi-g'arbidan iborta katta hududini egallab, 29° shimoliy kenglik va 130° sharqiy uzunlik va 109° g'arbiy uzunlikda joylashgan. Uning quruqlik qismi 1,3 mln. kv.km dan iborat.

Yangi Gviniya (829 ming kv.km) va Yangi Zelandiya (265 ming kv.km) Okeaniyaning taxminan 90 % egallasa, qolgan 10 ming dan ortiq orollar 200 ming kv.km yoki 10 % hududni egallaydi xolos.

Okeaniya Tinch okeani joylashgan orollar to'plamidir. Okeaniya uch qism : Polineziya, Melaneziya va Mikroneziyadan iboratdir. Melaneziya (Solomon, Yangi Gebrid, Yangi Kaledoniya va boshqa orollar) Avstraliyaga juda yaqin joylashgan, Polineziya (Gavayi, Samoa, Tokelau va boshqa orollar) esa Avstraliyadan ancha

olisda, Tinch okeanining janubiy va markaziy qismalarida joylashgan. Mikroneziya (Korolina, Marshall, Mariana, Gilbert va boshqa orollar) Yangi Gviniya orolidan shimolda, Filippin orollaridan sharq tomondagi akvatoriyada tarqalgan.

Okeanda uchta mustaqil respublika va bitta unitary monarxiya mavjud, qolgan mamlakatlar va orollar mustamlaka va yarim mustamlakalardan iborat.

Asosiy daryosi Murrey va uning irmog'I Darlingning suvi mavsumlari bo'yicha o'zgarib turadi.

Davlat tuzimi. Avstraliya – Buyuk Britaniya boshchiligidagi Hamdo'stlik tarkibiga kirubchi federal davlat. Avstraliyaning amaldagi konstitutsiyasi 1901 yilda qabul qilingan. Davlat tuzilishi shakli jihatidan – federatsiya. Davlat boshlig'I – Buyuk Britaniya qiroli (qirolichasi), general-gubernator uning vakili hisoblanadi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat ikki palatali (vakillar palatasi va senat) federal parlament. Vakillar palatasi (quyi palata) 3 yil muddatga, senat (yuqori palata) deputatlari har bir shtatdan 6 yil muddatga saylanadi. Senat tarkibining yarmi har 3 yilda yangilanadi. General-gubernator va bosh vazir boshchilik qiladigan hukumat ijroiya hokimiyatini amalgam oshiradi. Avstraliyaninghar bir shtati o'z konstitutsiyasi, parlamenti va hukumatiga ega; shtatlarning huquqlari cheklangan.

Hududiy bo'linishi

N	Shtatlar va hududlar	Maydoni, ming kv.km	Ma'muriy markazi
1	Yangi Janubiy Uels	801,4	Sidney
2	Viktoriya	227,6	Melbrun
3	Kvinslend	1727,5	Brisben
4	Janubiy Avstraliya	984,4	Adelaida
5	G'arbiy Avstraliya	2527,6	Pert
6	Tasmaniya	68,3	Xobart
7	Shimoliy hudud	1347,6	Darvin
8	Federal poytaxt hududi	2,4	Kanberra

Okeniyaning siyosiy bo'linishi

T/r	Mustaqil davlatlar va qaram orollar nomi	Maydoni (ming kv.km)	Aholisi, ming kishi (1999)	Poytaxti yoki ma'muriy markazi
1	Amerika Samoasi	0,195	67,7	Pago-Pago
2	Vanuatu Respublikasi	12,22	189,6	Port-Vila
3	Guam(AQSH mulki)	0,549	151,7	Xagatna
4	Irian-Jaya (Indoneziya provinsiyasi)	422	3506	Jayapura
5	Kiribati Respublikasi	0,81	91,9	Bairiki
6	Kuk orollari (Yangi Zelandiya mulki)	0,237	20,0	Avarua
7	Marshall orollari Respublikasi (AQSH bilan erkin uyushgan)	0,181	50,8	-
8	Mikroneziya Federativ shtatlari (AQSH bilan erkin uyushgan)	0,7	133,1	Pamshir
9	Nauru Respublikasi	0,021	11,8	-
10	Niue (Yangi Zelandiya mulki)	0,262	2,08	Alofi
11	Norfolk (Avstraliya mulki)	0,34	2,21	Kingston
12	Palau Respublikasi (AQSH bilan erkin uyushgan)	0,508	18,7	Koror
13	Papua-Yangi Gvineya	462,8	4900	Port-Morsbi
14	Pitkern (Buyuk Britaniya mulki)	0,035	0,058	Alamstaun
15	Samoa	2,8	179,4	Apia
16	Solomon orollari	27,6	466,1	Xoniara
17	Tokelau (Yangi Zelandiya)	10,12	1,5	Tokelau
18	Tonga Qirolligi	0,748	102,3	Nukualofa
19	Tuvalu	0,026	10,8	-
20	Uollis va Futuna orollari (Fransiya mulki)	0,274	15,2	Mata-Utu
21	Fiji Orollari Respublikasi	18,4	832,4	Suva
22	Fransiya Pleneziyasi	4,2	249,1	Papaete
23	Shimoliy Mariana orollari (AQSH bilan erkin birlashgan)	0,457	69,3	-
24	Yangi Zelandiya	270,5	3700	Vellington
25	Yangi Kaledoniya	19,01	201,8	Numea

1.2 Tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari

Avstraliya relyefining aksariyat qismi tekislik. Dengiz sathidan o'rtacha balandligi (215m) jihatidan Avstraliya materiklar ichida eng past. Yer yuzasi 95 %ining mutloq balandligi 600 m dan oshmaydi. Yirik orografik qismlari: 1) G'arbiy Avstraliya yassi tog'ligi – o'rtacha mutloq balandligi 400-500 m, tizmalari va supa tog'laridan iborat; 2) markaziy pasttekislik – ko'p qismining mutloq balandligi 100 m ga yetmaydi. Avstraliyaning eng past nuqtasi ham (-12m) o'sha yerdagi botiqda joylashgan Eyr ko'li yonida; 3) Katta Suvayirg'ich tizmasi (materik sharqida) – o'rtacha balandlikdagi ayrim-ayrim, cho'qqilari yassi tizma tog'lar. Avstraliyaning eng baland nuqtasi – Kostyushka tog'i (2230 m) janubdagi Avstraliya Alp tog'larida.

Avstraliya iqlimiy jihatdan subekvatorial, tropik va subtropik va subtropik mintaqalarida joylashgan. Iqlimi quruq tropic, sharqiy sohillari esa nam tropic. Buning sabablari: Asosiy daryosi Murrey (Darling bilan)

Avstraliya iqlimi uning shimoliy qismi (20^0 janubiy kenglikgacha) ekvatorial mussonli, o'rta katta qismi (20^0 - 30^0 janubiy kengliklar oralig'i) tropik cho'l va janubi-g'arbiy chekkasi qishda yog'in ko'proq yog'adigan subtropik iqlimli mintaqalarga kiradi. Avstraliya janubi yarimshardagi eng issiq quruqlik, uning 2/3 qismi cho'l va chalacho'llardan iborat. Qirg'oqlaridan materik ichkarisiga tomon yog'in miqdori tez kamayib boradi, lekin ko'p yillik yog'insiz davrlar bo'lmaydi. Yozda (dekabr-fevral) quruqlik g'oyat qizib (tempratura 36^0 dan ortadi) materik ustida past bosim oblasti bujudga keladi, uning janubiy chekkalaridagina baland bosim qaror topadi, shu sababli janubi g'arbda va Nallarbor tekislida yog'in tushmaydi. Haroratning mavsumiy o'zgarishi asosan tropik va subtropik mintaqalarining ichki rayonlarida ko'proq namoyon bo'ladi. Yanvar oyida 40^0 dan yuqori issiq tempraturalar shimoli-g'arbda (Morbl-Bar) bo'ladi. Mutloq maksimum harorat $53,1^0$ Klonkarrida (Kvinslend) kuzatilgan. Mutloq minimum harorat Avstraliyaning ichki rayonlarida – $4,6^0$ ga tushadi. Faqat Avstraliya Alp tog'larida sovuq barqarorroq bo'lib turadi. U yerda -22^0 gacha sovuq qayd qilingan.

Tekisliklarda tuproqning yuza qatlami ahyon-ahyondagina muzlaydi. Yil davomida ikkita mavsum – quruq va yog'ingarchilik mavsumlari kuzatiladi. Murrey tekisliklarida momaqaldirimli jalalar, janubi-sharqdagi tog'larda musson yomg'irlari yog'adi. Sharqiy sohilining ko'p qismida iqlim tropic dengiz iqlimi, issiq. Shimolda yog'inlarni shimoli-g'arbiy mussonlar keltiradi. Bu yerda yog'in sohilida 1500 mm, 10^0 - 20^0 janubiy kengliklarda 400-500 mm. Avstraliyada eng ko'p yog'in (2243 mm) Kernskda yog'adi. Eng kam yog'in (300-250 mm) materik g'arbida yog'adi. Katta Suvayirg'ich tizmasi Tinch okeanidan esuvchi iliq van am shamollarni to'sib, Avstraliyaning sharqiy sohili va ichki rayonlarida yg'in taqsimotini murakkablashtiradi. Qishda (iyun-avgust). Avstraliyaning ayniqsa janubiy va janubi-sharqiy qismlari sovuq ($12^0,5^0$), yuqori bosim oblasti tarkib topadi.

Ichki suvlari. Avstaraliyaning 60 % maydoni oqmas ichki havzaga, 7 % Tinch okeani va 33 % Hind okeani havzasiga mansub. Avstraliyada oqar suvlar ko'p emas. Okeanga quyiladigan daryolar qisqa, tog'lardan boshlanadi, suv miqdori doimiy emas. Eng sersuv daryosi Murrey (Marri) yirik irmog'i – Darling. Ichki berk havzani kesib o'tivchi chuqur o'zan (krik)lar ko'p, ularda faqat yog'ingarchilik vaqtlardagina suv oqadi. Avstraliya cho'llaridagi suvlar sho'r. Yer osti suvlari ko'pincha minerallashgan, zahirasi katta. Ular bir necha artezian havzada to'plangan, bunday suv 200 m, ba'zan 500 mgacha chuqurlikdan chiqadi. Sho'r ko'llar ichida eng yirigi Eyrning yozda maydoni ba'zan 15 ming kv.kmga yetadi. Undan janubda Torrens, Gerdner, G'arbiy platoda Amadies ko'llari bor. Avstraliya yer osti suvlariga boy. Umumiy maydoni 4800 ming kv.kmni tashkil qilgan 33 ta artezian havzasi mavjud; ulardan eng yiriklari – Katta Artezian, Murrey, Morton-Klarens, Yukla, Offiser, Jorjina. Yer osti suvlaridan qurg'oqchil rayonlarda sug'orish, sanoat va transport ehtiyojlari uchun foydalaniladi

Okeaniya Tinch okeanining markaziy va g'arbiy qismlaridagi orollar to'dasi. 28^025^1 shimoliy kenglik bilan 52^030^1 janubiy kengliklar va 130^0 sharqiy uzunliklar bilan 105^0 g'arbiy uzunliklar oralig'ida. G'arbiy qismi Avstraliya va

Malay arxipelagiga yondosh. Orollarning umumiy maydoni 1,26 mln km.kv, shuning 80% Yangi Gvineya va Yangi Zelandiya orollariga to'g'ri kiladi.

Okeaniya uch qism : Polineziya, Melaneziya va Mikroneziyadan iboratdir. Orollar suv osti tizmalari yoki marzalarining tepalaridir. Melaniziya (Solomon, Yangi Gebrid, Yangi Kaledoniya va boshqa orollar) Avstraliyaga juda yaqin joylashgan, Polineziya (Gavayi, Samoa, Tokelau va boshqa orollar) esa Avstraliyadan ancha olisda, Tinch okeanining janubiy va markaziy qismlarida joylashgan. Mikroneziya (Korolina, Marshall, Mariana, Gilbert va boshqa orollar) Yangi Gviniya orolidan shimolda, Filippin orollaridan sharq tomondagi akvatoriyada tarqalgan. Okeanda passat shamollar hukmronlik qiladi. Dengiz tropik iqlimi tarqalgan, yog'in ko'p yog'adi.

Okeaniya orollari janubiy yarim sharning tropik va subtropik mintaqasida joylashgan, yumshoq issiq iqlim (yer sharidagi eng shinam, yoqimli va qulay) harorati, yetarli yog'in miqdori bu kengliklarda yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi ekinlaridan mo'l hosil olishdan tashqari, bir necha marta hosil olish imkonini beradi (Kokos palmasi, banan, kakao, kofe, choy, shakarqamish, paxta, ildizmevalilar: taro, batat, yams, monioki va boshqalar.).

Avstraliya geologik tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari mineral xom ashyo resurslariga boy va xilma-xil bo'lishiga olib kelgan. Foydali qazilma resurslari bilan o'z ehtiyojlarini qondirishdan tashqari xalqaro bozorga ham chiqaradi. Birinchi navbatda bu qora va rangli metal rudalari, uran, ikkinchi o'rinda ko'mir, ligerlovchi va kamyob metallar, oltin zahiralariga taalluqlidir.

Avstraliya xilma-xil foydali qazilmalarga boy. Shulardan ba'zilar ahamiyati va zahirasi bo'yicha dunyoda yuqori o'rinlarni egallaydi. Temir rudasi, mis, nikel, uran rudalari, boksitlar, ko'mir, oltin, olmos konlari shular jumlasidandir.

Temir rudasining yirik konlari (Tom-Prays, Maunt, Maunt-Ueylbek) mamlakat g'arbida, oltin konlari (Kambalda, Leonora) janubi-g'arbida, nikel ruda konlari (Grinveyl) shimoli-sharqiy va janubi-g'arbiy qismlarida alyuminiy (boksit) rudalari konlari (dunyodagi eng yirik kon Ueypa-York yarim orolida topilgan, yana Gov va boshqalar), uran rudalari konlari (Nabarlek) shimolda, polimetall rudalari

konlari (Broken-Xill va boshqalar) janubiy va shimoliy qismlarida, olmos konlari (Uinton va boshqalar) mamlakatning sharqiy va janubiy hududlarida joylashgan. Ko'mir konlari materikning janubiy va janubi-sharqiy qismlarida topilgan, neft va tabiiy gaz konlari mamlakatning sharqiy hududlaridan va g'arbida okean shelfida qazib olinadi.

Okeaniya xilma-xil qazilma boyliklarga boy. Toshko'mir (Yangi Zelandiya), tabiiy gaz, temir rudasi, mis va marganes rudalari, platina, kumush (Yangi Gviniya), oltin (Fiji), fosforit rudasi (Nauri) va boshqalar qazib chiqariladi.

Avstraliya platformasi oltin va polimetallga, temir rudasi va boksitga boy, Flinders tizmasida uran va radiy rudalari uchraydi. Avstraliya sharqida toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir konlari bor. Katta Artezian havzasi, Viktoriya shtati sohillarida neft va gaz konlari topilgan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Avstraliya turli xildagi foydali qazilmalarga boy. Asosan temir rudasi, mis, titan, nikel, uran, boksit, oltin, olmos, ko'mir kabilar. Masalan:

Temir rudasi qazib olishda dunyoda 3-o'rinda (yiliga 110 mln t.);

Marganes qazib olishda 3-o'rinda;

Boksit qazib olishda 1-o'rinda;

Nikel qazib olishda 3-o'rinda;

Qalayi va rux qazib olishda 2-o'rinda;

Mis qazib olishda 9-o'rinda;

Ko'mir qazib olishda 6-o'rinda (yiliga 210 mln t.)

Olmos qazib olishda 1 -o'rinda turadi.

1.3. Aholisi va mehnat resurslari

Avstraliya aholisi deyarli bir millatli bo'lib, (4/5 qismi) uning yadrosini Buyuk Britaniyaning va Irlandiyaning immigrantlar-angloavstraliyaliklar tashkil qiladi. Mahalliy aholi- aborogenlar juda ozcilikdan iborat (1 % atrofida). Avstraliyaning uzoqligi dastlab yevropaliklar tomonidan davlat jinoyatchiliklari surgun qiladigan joy sifatida foydalanilgan bo'lsa, XIX asr ikkinchi yarmidan boshlab oltin topilishi va go'sht sut, jun chorvachiligining rivojlanishi bilan ommaviy immigratsiya mamlakatga aylandi va 20 % ga qadar aholi o'sishini ta'minladi. O'rtacha zichlik 1 kv.km ga 3 kishi, aholisining asosiy qismi (2/3 qismidan ortig'i) mamlakatning sharqiy, janubi-sharqiy qirg'oq bo'yi hududlarida (1 kv.km da 10-15 kishi).

Aholisi. Avstraliya va Okeaniya (Gavayi orollarisiz) da 2004 yilning 1-yanvar kuniga nisbatan 33 mln. kishi istiqomat qilgan. Shu jumladan Avstraliyada 19,6 mln. kishi (2/3 qismi), Yangi Zellandiya 4,0 mln., Papua-Yangi Gveniyada 5,5 mln. kishi mavjud bo'lgan.

Aholisining soni juda past sur'atlar bilan ko'paymoqda. Jumladan, 1995-2004 yillar ichida aholi soni 28 mln. kishidan 33 mln kishiga yetgan yoki 17,8 % ga ko'paygan xolos. Avstraliya Ittifoqi aholisining soni esa atigi 1 mln kishiga o'sdi.

Aholi sonining o'sishida tabiiy ko'payish bilan bir qatorda, xalqaro migratsiya hozirgi vaqtgacha muhim o'rin egallab kelmoqda. Aholi juda natekis taqsimlangan. Tug'ilish koeffitsiyenti 13 promille, o'lim 7 promille. 15 yoshgacha bo'lganlar jami aholining 20 % ini, 64 yoshdan o'tganlar 13 % ni tashkil etadi. O'rtacha yashash davri erkaklarda 78 yoshga, ayollarda 82 yoshga teng.

Bir ayolga 1,7 bola to'g'ri keladi. YAMD 24630 dollar (2001 yil).kishi) joylashgan, ayni paytda katta hudud mutloq o'zlashtirilmagan.

Avstraliya-dunyodagi urbanizatsiyalashgan davlat. Aholining 87 % idan ortig'i shaharlarda yashaydi. Eng yirik shaharlari: Sidney, Melbrun, Brisben, Adelaida, Pert, Nyukasl, barchasi yirik portlardir.

Avstraliyani 1606 yil golland sayyohi V. Yanszon kashf etgan. Yevropaliklar XVIII asr oxiridan (1788 yil Sidneyga) ko'chib kela boshlaganlar. Aholisining 77 % ini Buyuk Britaniyadan ko'chib kelganlarning avlodlari, qolgan Yevropaning boshqa xalqlari, metislar va aboriginlar (50 000 kishi) (250 ming kishi aboriginlar va metislar) tashkil etadi. Aholisining tabiiy ko'payishi past. Aholisining hozirgacha migratsiya (yiliga 100-150 ming) katta ta'sir etmoqda. Aholisining o'rtacha zichligi 2,5 kishi bo'lib, u juda notekis joylashgan. Masalan: Avstraliya maydoning 65 % ida mamlakat aholisining 1% i, mamlakatning janubi-sharqini egallagan 10 % maydonida 91 % aholi yashaydi. Eyr ko'li atrofida doimiy aholi umuman yo'q, lekin janubi-sharqiy sohillarida 1kv.km joyga 250 tagacha odam to'g'ri keladi. Umuman olgan aholi meterikning chekka sohili qismlarida nisbatan zich, markaziy va g'arbiy hududlarida siyrak tarqalgan. Ba'zi bir hududlarida doimiy aholi umuman yo'q.

Tub joy aholi va duragaylar Avstraliya aholisining 1,5 % ini tashkiletadi; ukrainlar, italyanlar, nemislar, greklar, gollandlar va boshqalar ham yashaydi. Bir necha yuz o'zbek bor. Rasmiy tili ingliz tili.

Urbanizatsiya darajasi materiklar bo'yicha eng yuqori, ya'ni 86 % (91 %) ni tashkil qiladi. Millioner shaharlari: Sidney (3,7 mln), Melbrun, Brisben, Pert, Adelaida.

Avstraliya hududida Buyuk Britaniya dastlab surgunchilar uchun joy uchun foydalanilgan. XIX asrning 50-60 yillarida oltin konlarini ochilishi Avstraliyaga kelishini kuchaytirdi. 1901 yil Avstraliyadagi mustamlakalar birlashtirilib Avstraliya Ittifoqini tashkil etdi. 1931 yildan boshlab Avstraliya mustaqillik statusini oldi. Avstraliya Ittifoqi federativ davlat bo'lib, hozirda u 6 ta shtat va 2 ta hududdan tashkil topgan. Buyuk Britaniya Hamdo'stligi tarkibiga kiradi. Asosiy siyosiy partiyalari: 1. Avstarliya Leyboristik partiyasi (1891 yil), 2. Avstraliya milliy-agrar partiyasi (1916 yil), 3. Avstraliya sotsialistik partiyasi (1972 yil) tashkil topgan.

Mintaqada papuas, melaneziya, mikroneziya va polineziya xalqalri yashaydi. Okeaniya yevropaliklar tomonidan (F. Magellanning dunyo aylana sayohati

davrida 1521 yil Mariana oroli kashf etilga) XVI asr boshlarida kashf qilingan. Okeaniya hozirgi aholisining asosiy qismini mahalliy aborigenlar (avstroneziya oilasiga kiruvchi papuas xalqlari), immigrantlar va ularning avlodlaridan (ingliz-yangi zelandiyaliklar, amerikaliklar, hindlar, fransuzlar, ingliz-avstraliyaliklar, xitoylar, koreyslar, vetnam va boshqalar.) iborat. Okeaniya mamlakatlarining ko'pchiligida tug'ilish va tabiiy o'sishning yuqoriligi va o'limning pastligi xarakterli. Jinsiy tarkibda ayollarga nisbatan erkaklar ko'pchilikni tashkil qiladi. Yosh tarkibida o'smirlar salmog'i yuqori. Iqtisodiy faol aholining asosiy qismi qishloq xo'jaligi, tog'-kon, xizmat ko'rsatish (ayniqsa, turistlar uchun) sohalrida band. Mamlakatlararo migratsiya oqimi mavjud. Aholining o'rtacha zichligi har bir kv.km ga 8-8,5 kishi to'g'ri keladi.

Tavaku, Nauru, Mbau va boshq aorollarda aholi zich joylashgan bo'lsa, bir qator orollarda aholi mutloq yashamaydi.

Okeaniyaning aholisi tarkibida mahalliy xalqlarning ulushi anchaga yetadi. Jumladan, Yangi Zelandiya mahalliy xalq-maorilarning jami aholi sonida ulushi 20 foizga yetadi. Bu ko'rsatkich Papua-Yangi Gviniyada 70-80 % ga, mayda orollarda esa 100 % gacha boradi. Okeaniya aholisi 31 mln kishi (2001, Avstraliya bilan birga). Okeaniyaning tub joy aholisi to'rt tirik guruhga bo'linadi: papuaslar, melyanezlar, polinezlar va mikronezlar. Okeaniyaga yevropaliklar kila boshlagan vaqtda (XVI asr boshi) u yerda taxminan 3,5 mln aholi yashar edi. Begunoh o'ldirish, chitdan olib borilgan yuqumli kasalliklar va boshqalar natijasida aholi kiskin kamaygan. XIX asre oxiri va XX asr boshiga kilib aholi soni yana tez o'sa boshladi.

Etnik tarkibi. Okeaniyada irqi, tili, tarixi va madaniyati jihatidan o'zaro kiskin farq qiluvchi xalqlar yashaydi. Ularni son jihatdan ikki qismga: mahalliy aholi va ko'chib brogan aholiga bo'lish mumkin. Okeaniyaning mahalliy aholisi polineziya, melaneziya va mikroneziya antropologik tiplarga mansub. Mahalliy aholining bir qismi malay-polinez tillarida boshqa qismi papua tillarida so'zlashadi. Papua tillari bir necha guruhlariga bo'linadi. Lekin Okeaniya xalqlarining til guruhleri ularning mavjud etnik va madaniyati jihatdan yaqinligiga to'la muvofiq emas. Etnografik

adabiyotlarda ularni ko'pincha tarixi va madaniyati o'xshash oblastlar bo'yicha guruhlashtiradilar.

II BOB. Avstraliya va Okeaniya xo'jaligi rivojlanishining asosiy xususiyatlari.

2.1 Sanoat tarmoqlarining rivojlanishi.

Avstraliya iqtisodiyotida sanoat ishlab chiqarish, ya'ni tog'-kon sanoati, metallurgiya, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoati yetarlichi o'rin tutadi. Iqtisodiy faol aholining 35 % i sanoat, 7 % i qishloq xo'jaligi, 7 % i transport tarmoqlarida va 50 % i noishlab chiqarish sohalarida (savdo, moliya-bank, xizmat ko'rsatish) band. Bu tarmoq nafaqat mamlakat ichkarisi, balki xalqaro bozorga ham xizmat ko'rsatadi. Avstraliya xo'jaligida an'anaviy qo'ychilik iqtisodiyotning milliy tarmog'idir. Ayni vaqtda chorvachilik tarmoqlari negizida eksport yo'nalishidagi yirik va xilma-xil oziq-ovqat sanoati (go'sht va sut mahsulotlari, bug'doy va shaker ishlab chiqarish) rivojlangan bo'lsa, ikkinchi eksport yo'nalishi temir rudasi qazib chiqarish, boksit va glinazem, qo'rg'oshin, rux, uran, toshko'mir, rangli va kamyob rudalar, tayyor alyuminiy, maxsus po'lat, turli qotishmalar, mis, qalay, qorg'oshin va rux eritmalarini o'z tarkibiga oladi. Iqtisodiyotdagi o'zak tarmoq - oziq-ovqat sanoati mahalliy xom ashyo asosida go'sht-sut, un-yorma, qand-shakar, meva-sabzavot konservalari ishlab chiqariladi. Oziq-ovqat sanoati korxonalari mamlakatning janubi-sharqidagi port shaharlarda (Melbrun, Sidney, Nyukasl, Adelaida va boshqalar.) joylashgan

Mashinasozlik (yengil va yuk avtomobillar, qishloq xo'jaligi texnikasi va jihozlari), elektrojihozlar, xilma-xil priborlar va boshqa mahsulotlar, neftni qayta ishlash, kimyo sanoati (azotli va fosforli o'g'itlar, plastmassa, kimyoviy tolalar va boshqalar), yengil sanoat (poyafzal, gazlama va trikotaj) rivojlangan.

Yangi hududlarni intensiv o'zlashtirilishining boshlanishi bilan (Shimoliy hududlar) yangi tog'-kon sanoati rayonlari (Darvin, Maynt-Ayza, Broken-Xill, Kalgurli va boshqalar) iqtisodiyotda sezilarli rol o'ynamoqda.

Avstraliya sanoati yalpi milliy mahsulotning 30 %ini beradi. Uning asosiy tarmoqlari: konchilik, metallurgiya, kimyo, mashinasozlik, oziq-ovqat, yengil sanoat. Asosiy energitika resurslari – ko'mir va tabiiy gaz. Issiqlik elektr

stansiyalari energiyaning 80 % iga yaqinini hosil qilib beradi. 1994-1995 yil. 155 mlrd kvv/s elektr energiyasi hosil qilingan. Eng katta temir rudasi – G'arbiy Avstraliyadagi Pilbara koni, rangli metal rudalari, asosan Brokin-Xill (Yangi Janubi Uels) va Maunt-Ayza (Kvislend), boksitlari Ueyta (Kvinslend) va Gov (Shimoliy hudud) dan qazib olinadi. 1994-1995 yil 111 mln tonna temir rudasi, 202 mln. tonna toshko'mir, 32,9 mln. tonna neft, 20,7 mlrd.m³ tabiiy gaz, 256 tonna oltin qazib olingan. Sanoatida mashinasozlik, metallurgiya, kimyo, neft kimyosi (oltingugurt kislotasi, mineral o'g'itlar) va neftni qayta ishlash tarmoqlari ustunlik qiladi. 1993-1995 yil 6,2 mln. tonna po'lat, 237 ming tonna mis, 211 ming tonna qalay, 1,2 mln. tonna alyuminiy va 360 mlnga yaqin avtomobil ishlab chiqarilgan. Oziq-ovqat sanoati ko'proq eksportga (go'sht, un, qand-shakar, sariyog'-pishloq, pivo, vino) moslangan. To'qimachilik, tikuvchilik, poyafzal korxonalari bor. Asosiy sanoat markazlari: Sidney, Melbrun, Brisben, Adelaida, Pert. Vullogong-Port-Kembla, Nyukasl, Jilong, Kuinana port-sanoat majmualari shakllangan.

Avstraliya Ittifoqi va Yangi Zelandiya dunyoningeng rivojlangan mamlakatlari qatoriga kiradi. Fiji, Marshall orollari va Mikroneziyada iqtisodiyot nisbatan rivojlangan, qolgan mamlakatlar va orollar qoloq xo'jalik tizimga ega.

Avstraliyada mahalliy mineral resurslar va qishloq xo'jaligi xom ashyosiga asoslangan sanoat tarmoqlari: tog'-kon, metallurgiya, mashinasozlik, yengil va oziq-ovqat sanoati yuqori darajada rivojlangan.

Mamlakatning issiqlik va gidravlik elektr stansiyalariga ega. Avstraliyada AES lar yo'q. Asosan IES lar qisman GES lardan yiliga 200 mlrd kvv/s elektr energiyasi ishlab chiqariladi.

Avstraliyada 2003 yilda 200 mlrdn kvv/s dan ortiq elektr energiya ishlab chiqariladi. Bu ko'rsatkich Yangi Zelandiyada 40 mlrd. kvv/s gat eng bo'ladi.

Avstraliyada hozirgi vaqtda 30 mln.t neft, lekin u ehtiyojni qondirmagani uchun OPEK davlatlaridan sotib olinadi. 30 mlrd. kub metr tabiiy gaz qazib olinadi va uni Yaponiyaga eksport qiladi, 350 mln. tonna ko'mir qazib oladi (Nyukasl, Yangi Janubiy Uels) va ortiqchasini asosan Yaponiya va xorijiy Yevropaga eksport

qiladi. 9-10 mln. tonna po'lat eritilmoqda, 300 ming donadan ko'p yengil avtomobillar ishlab chiqarilmoqda.

Avstraliyada qora metallurgiya Port-Kembla, Nyukasl, Uandovi shaharlarida, rangli metallurgiya Maunt-Ayza, Klonkarri, Gladston, Kalgurli-Boulder, Port-Pert, Kanberra, Xobart, Risdon, Bell-Bey shaharlarida rivojlangan. Yirik katta hamda o'rta shaharlarining barchasida mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati korxonalari mavjud. Mamlakatda neftni qayta ishlash va neft-kimyo sanoati tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Ushbu tarmoq markazlari bo'lib, Melbrun, Sidney, Nyukasl, Brisben, Pert, Adelaida va boshqa shaharlar hisoblanadi. Avstraliyada yog'ochini qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz sanoati yaxshi rivojlangan. Mamlakatda 2.0 mln. tonnaga yaqin qog'oz ishlab chiqariladi. Mazkur tarmoqning yirik korxonalari mamlakatning janubi-sharqidagi ko'pchilik shaharlarida joylashgan. Avstraliyada 5-6 mln. tonna sement va katta miqdorda boshqa qurilish materiallari ishlab chiqariladi. Qurilish materiallari sanoati mamlakatning barcha regionlarida va shaharlarida mavjuddir.

Avstraliya yengil sanoat, ayniqsa, uning to'qimachilik, teri-poyafzal tarmoqlari yaxshi rivojlangan. To'qimachilik korxonalari Sidney, Melbrun, Ballarat, Adelaida, Pert, Albani shaharlarida joylashgan.

Mamlakatda oziq-ovqat sanoati tarmoqlari ichida un va omuxta yem ishlab chiqarish, qand-shakar, go'sht, sut, baliq-konserva, kanop korxonalari keng tarqalgan va deyarli barcha shaharlarda mavjud.

Neftni qayta ishlash va baliq konserva sanoati dengiz bo'yidagi port shaharlarida joylashgan. Eng yirik sanoat markazlari: Sidney va Melbrun; yiriklari: Brisben, Adelaida, Pert, Kanberra, Nyukasl.

Okeaniya sanoati tog'-kon sanoati nikel, rangli metallar, foaforit, xromit, neft, boksit qazib chiqarish tarmoqlaridan iborat. Oziq-ovqat sanoati qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotlarini qayta ishlaydi va bu tarmoqlar ko'pchilik orol davlatlarning tashqi savdo yo'nalishlarini belgilab beradi. Keyingi yillarda turizm jadal rivojlangan.

2.2 Qishloq xo'jaligi

Avstraliya yirik yer egaligi mamalakati. Foydalaniladigan yerlarning 80 % dan ortig'i yirik yer egalari qo'lida. Fermalar sertovarligi, mexanizatsiyalashuvi va ixtisoslashuvi bilan ajralib turadi. Qishloq xo'jaligi mahsuloti qiymatining 60 % idan ko'prog'ini chorvachilik beradi. Qo'ylar 174 mln. 100 ming boshga ega xo'jaliklar (skvatter – yirik chorvador) mavjud, qoramol – 24,1 mln. boshni tashkil etadi. Qo'ychilikning asosiy rayonlari janubi-sharqiy va janubi-g'arbiy sohil sut yetishtiruvchi rayon janubi-sharqiy sohil, go'sht yetishtiruvchi rayon mamlakat sharqi va shimoli. Salkam 15 mln. gektarga ekin ekiladi, shundan, 1,5 mln. gektari sug'oriladi. Asosiy ekinlar bug'doy (hosili yiliga o'rtacha 14,3 mln. tonna) va shakarqamish, shuningdek, arpa, suli, supurgi, jo'xori, sholi, makkajo'xori, kartoshka, paxta, tamaki, uzum, mevali daraxtlar. Bir yilda o'rtacha 3,7 mln. tonna shakar xom ashyosi, 3,7 mln. tonna go'sht, 720 ming tonna jun yetishtiriladi.

Qishloq xo'jaligida yaylov chorvachiligi (qo'ychilik) va qoramolchilik yaxshi rivojlangan. Avstraliya yaylovining kattaligi va ularda boqiladigan qo'ylarning soni bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda egallaydi. Chorvachilik qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i bo'lsa ham, mamlakatda dehqonchilik ham yuqori darajada rivojlangan. Shakarqamish, paxta va ayniqsa, donchilik yuqori tovar ahamiyatiga ega. Dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari yengil va oziq-ovqat sanoatining asosiy xom ashyosi hisoblaandi.

Avstraliya qishloq xo'jaligida chorvachilik – bosh tarmoq. Chorvachilik go'sht-jun yo'nalishidagi qo'ychilik va sut yo'nalishidagi qoramolchilikdan iborat. Chorvachilikka qishloq xo'jalik mahsulotlari qiymatining 2/3 qismi to'g'ri keladi. Yilqichilik, tuyachilik, parrandachilik rivojlangan. Ekin maydonlarining 40 % I yem-xashak ekinlari bilan band. Ziroatchilikda bug'doy (mamlakatning janubi-sharqi va janubi-g'arbida qo'ychilik bilan), arpa, shakarqamish (shimoli-sharq), paxta (g'arb va sharq), subtropik va tropic bog'dorchilik, uzumchilik va sabzavotchilik muhim o'rin tutadi. Sug'orma dehqonchilik asosan, Viktoriya shatatida rivojlangan bo'lib, yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy qismi to'g'ri keladi.

Don ekinlarining yalpi hosili 35-40 mln. tonnani tashkil etadi, yarim mln tonnadan ortiq paxta tolasi ishlab chiqarilmoqda. Avstraliyada salkam 30 mln. bosh yirik shoxli qora mol (Yangi Zelandiya 10 mln bosh), 150 mln. boshdan ziyod qo'y va echkilar (Yangi Zelandiyada 60 mln. bosh) mavjuddir. Avstraliya o'rtacha yiliga 4,0 mln. tonna go'sht (Yangi Zelandiyada 1,5 mln. tonna), 8 mln. tonna (Yangi Zelandiyada 9 mln. tonna) sut tayyorlanadi.

Okeaniyadagi orol mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra rivojlanayotgan mamlakatlar bo'lib, iqtisodiyoti agrar yo'nalishga ega.

Xo'jalik ixtisoslashuvida tropik dehqonchilik (xilma-xil sabzavotlar va mevalar, paxta, kofe, kakao va boshqalar) va chorvachilik (qoramolchilik, qo'ychilik, cho'chqachilik, parrandachilik) asosiy sohalaridir. O'rmon xo'jaligi va baliqchilik rivojlangan bo'lib, eksportga yog'och va o'rmon mahsulotlarini chiqaradi.

2.3 Transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari

Transporti 1996 yilda avtomobil yo'llari 900 ming km, jumladan, qattiq qoplamali yo'llar – 420 ming km, temir yo'l – 40,6 ming tashkil qiladi. Asosiy dengiz portlari- Sidney, Melbrun, ixtisoslashtirilgan portlar – Port-Xedlend, Dampir (temir ruda jo'natish). Xalqaro aeroportlari Sidney, Melbrun, Pert, Darwin.

Ichki aloqalarda avtomobil transportining roli katta (yo'lovchilar tashishning 90 % i to'g'ri keladi), 1 mln. km da ortiq shosse yo'llariga ega. Temir yo'l transportiga yuk aylanmasining 1/3 qismi to'g'ri keladi vat emir yo'llarning uzunligi 41 ming km atrofida. Ichki suv transporti umuman yo'q. Dengiz transportining yuk aylanmasidagi hissasi (50 % dan ortiq) juda yuqori. Havo transporti (yo'lovchi tashishda) katta o'rin tutmoqda. Sidney, Melbrun, Nyukasl, Port-Kembla, Gladston va Frimantal yirik port shaharlaridir.

Avstraliya jahonda temir yo'llarining uzunligi bo'yicha (6-o'rin) ham, avtoyo'llarning uzunligi bo'yicha ham birinchi o'nlikka kiradi.

Mamlakat doirasidagi asosiy yuklar temir yo'l transporti orqali tashiladi. Xalqaro savdo aloqalarida dengiz transportining ahmiyati beqiyosdir. Avstraliyada keyingi yillarda quvur transportining rivojlanishiga katta e'tibor qaratilmoqda. Avstraliyaning savdo aylanmasi 50 mlrd dollarni tashkil etadi. Shuning 60 %i eksportga, 40 %i importga to'g'ri keladi. Avstraliya chetga, asosan, AQSH, Yaponiya, G'arbiy Yevropa mamlakatlariga tog'-kon, metallurgiya, mashinasozlik, yengil va oziq-ovqat mahsulotlarini chiqaradi. Avstraliya hozirgi vaqtda sharqiy va Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarining asosiy xom ashyo bazasiga aylanmoqda. Shu bilan birga yuqori texnologiyalarga tayanib, ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari ham mamlakatdan keng miqyosda eksport qilinmoqda.

Avstraliyaning asosiy savdo sheriklari: Yevropo Ittifoqi mamlakatlari (2/3 qism tashqi savdo aylanmasi) va AQSH, Yaponiya, Yangi Zelandiya va boshqa mamlakatlardir. Eksportda mineral xom ashyo (40 % eksport qiymati) va qishloq xo'jaligi mahsulotlari (40 % eksport qiymati, bug'doy, shakarqamish, paxta, go'sht, jun va boshqalar), ishlov beruvchi sanoat va iste'mol tovarlari yetakchi o'rin tutadi.

Asosiy eksporti: ko'mir, tabiiy gaz, temir, alyuminiy, uran, mis, nikel, marganes, bug'doy, shakarqamish, yengil sanoat mahsulotlari, charm, go'sht, sut, yuqori texnologiya sanoat mahsulotlari

Eksportda qishloq xo'jalik mahsulotlarining ulushi 30 %, tayyor sanoat mahsulotlari, 20 % ni tashkil qiladi. Tayyor iste'mol mollari, asbob-uskunalar, neft chet eldan keltiriladi. Asosan Yaponiya, AQSH, Buyuk Britaniya bilan savdo sotiq qiladi. Pul birligi Avstraliya dollari.

Asosiy importi: mashina va jixojlar, sanoat mahsulotlari, neft, kimyo sanoati mahsulotlari.

Okeaniyaning tashqi iqtisdiy aloqalari asosan dengiz transporti orqali amalga oshirilmoqda.

2.4 Iqtisodiy rayonlari

Avstraliya 4 ta iqtisodiy rayonga bo'linadi:

1. Janubi-sharqiy iqtisodiy taroni (Yangi Janubiy Uels, Viktoriya, Janubiy Avstraliyaning janubi-sharqi va poytaxt federativ hududi). Mintaqaning bosh iqtisodiy rayoni mamlakat hududining 20 % ini egallaydi, uning hissasiga 70 % aholi, 80 % ishlov beruvchi sanoat tarmoqlari mahsulotlari, 50 % tog'-kon sanoati, 50 % qishloq xo'jalik mahsulotlari to'g'ri keladi. Yirik sanoat markazlari : Sidney, Melbrun, Adelaida, Jilong, shuningdek, Nyukasl, Port-Kembla, Broken-Xill, Port-Ogasta va boshqalar.
2. Shimoli-sharqiy iqtisodiy rayoni sharqdagi Brisben shahridan shimoldagi Darwin, markaziy qismidagi Alis-Springs shaharlari oralig'idagi hududni egallaydi. Hudud jihatidan eng katta rayon, ayni paytda sanoat bir muncha sust rivojlangan (ayniqsa iqtisodiy rayonning shimoliy va janubiy qismida). Rayon tabiatida hukmron bo'lgan tropik va subtropik iqlim sharoiti qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun qulay. Dehqonchilikda shakarqamish, tropic mevalar (banan, papaya, ananas va boshqalar.) yetishtirishga, chorvachilikda qoramolchilikka (mamlakatdagi 50 % qoramollar shu rayon hissasiga to'g'ri keladi) ixtisoslashgan. Mamlakatda yetishtirilayotgan go'shtning 1/3 qismini, qandning 95 %ini ishlab chiqaradi. Boksit, glinezim, neft qazib chiqariladi va bu o'z navbatida rayonda yirik neft-kimyo, mashinasozlik (Brisben), qora va rangli metallurgiya (Meriboro, Maunt-Morgan, Rokgempton, Klonkarri, Maunt-Ayza), oziq-ovqat va yengil sanoat (Kerns, Darwin, Taunzill) tarmoqlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.
3. G'arbiy iqtisodiy rayon Katta Avstraliya qo'ltig'i sohili bo'yida (Esperans shahri) Shimoldagi Uindem shahrigacha bo'lgan hududni egallaydi. Ma'muriy birlik bo'yicha G'arbiy Avstraliya shtatini o'z ichiga oladi. Yirik shaharlari : Pert (mashinasozlik, oziq-ovqat), Uandovi, Kuinana (qora metallurgiya va kimyo), Jeraldton, Uindem (oziq-ovqat) va boshqalar. Yuqori sanoatlashgan janubi-g'arbiy,

sust sanoatlashgan shimoli-g'arbiy, foydali qazilmalarga boy (neft, temir, marganes, oltin) markaziy-g'arbiy mintaqalarga ajratiladi.

4. Tasmaniya rayoni – mamlakat janubidagi Tasmaniya orollaridan iborat bo'lib, qulay va mo'tadil iqlim (issiq namli va doimiy bir xil) mintaqasida joylashgan, gidroresurslarga, foydali qazilmalarga (mis, qalay, rux, temir rudasi, toshko'mir va boshqalar.) boy. Turizm, qishloq xo'jaligi (bog'dorchilik, keyingi yillarda ko'knori-mak yetishtirish), gidroenergetika, rangli metallurgiya (temir, mis, polimetall rudalari hisobiga), yog'ochga ishlov berish tarmoqlari rivojlangan. Oziq-ovqat sanoatida baliqchilik katta o'rin tutadi. Xobart (rangli metallurgiya va oziq-ovqat), Bell-bey (rangli metallurgiya), Snoup (elektroenergiya), Kajeva (ozuq-ovqat va yog'ochga ishlov beruvchi sanoat) rayonning asosiy va savdo shaharlari hisoblanadi.

Okeaniyadagi ko'p sonli orollar tabiiy shart-sharoitlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlariga ko'ra bir biridan farq qiladi. Shu nuqtai nazardan Okeaniyani uchga bo'lish mumkin.

Melaneziya ("Qora orollar"). Tinch okeanining janubi-g'arbiy qismidagi yirik orol-davlatlar kiradi va Okeaniya hududining 90 % (1170 ming kv.km), aholisining 80 % I to'g'ri keladi. Nafaqat Melaneziyada, balki butun Okeaniyadagi eng yirik davlat – Papau-Yangi Gvineya (maydoni 463,0 ming kv.km, aholisi 6,5 mln. kishi 2008 yil, iyul), poytaxti – Port-Morsbe shahri. Foydali qazilmalarga boy (mis, marganes, toshko'mir, oltin va boshqalar). Asosan tropic o'rmonlar bilan qoplangan va hududining 70 %ini egallaydi. Mahalliy xalq-papuaslar (1000 dan ortiq qabila va til), bundan tashqari yevropaliklar, avstraliyaliklar, Sharqiy Osiyo xalqlari (xitoylar va boshqalar.) yashaydi. Iqtisodiyotining asosi qishloq xo'jaligi bo'lib, 85 % aholi band. Kofe (25 % eksport tushumi to'g'ri keladi), kako, kopra, tabiiy kauchik va tropic daraxtlar yetishtiriladi va eksport qilinadi. Turizm va baliqchilik rivojlangan.

Polenizeya ("Ko'p sonli orollar") Tinch okeani markazidagi g'oyat ko'p sonli orollarni o'z tarkibiga oladi. Maydoni 26 ming kv.km, aholisi 1,5 mln kishi, bir tilda (bir necha dialektda) so'zlashadi. Tropik dehqonchilik, baliqchilik,

chorvachilik, hunarmandchilik rivojlangan. Dengiz toshbaqalari ovlanadi, marvarid olinadi.

3. Mikroneziya (“Kichik orollar”) Tinch okeanining shimoli-g’arbiy qismidagi kichik orollar guruhidan tashkil topgan. Quruqlik maydoni 2,6 ming kv.km, aholisi 1,2 mln. kishi. Mariana va Karolin, Marshall orollari guruhidan iborat (200 ga yaqin orollarda yashaydi). Nauru, Tuvalu, Kiribati, Vanuatu, Papua, Fidji va boshqa mustaqil davlatlar mavjud. Keyingi yillarda fosforit, boksit, temir va marganis rudalari qazib chiqarilmoqda. Eksport va istemol yunalishidagi qishloq xo’jaligi ekinlari, baliqchilik, (dengiz mahsulotlari) rivojlangan. Hududda AQSHning tasiri juda katta.

Xulosa

Avstraliya aborogenlarning ajdodlari bu qit'aga 40000 yil muqaddam ko'chib kelganlar. Avstraliya hududida yevropaliklar kelgunga qadar chorvachilik, dehqonchilik va temir nimaligini bilmagan aborogen qabilalari istiqomat qilishardi. Ularning asosiy mashg'uloti temirchilik va ovdan iborat edi. XVIII asr oxirlarida mamlakat hududida 300000 aborogen yashagan. 1606 yili gollandiyalik dengizchi V. Yanszon yevropaliklardan birinchi bo'lib, Avstraliya qirg'oqlariga yetib kelgan. 1643 yilda yana bir golland dengizchisi A. Tasman mamlakatning shimoliy qirg'oqlari va Tasman orollarini o'rganib chiqdi. 1770 yilda ingliz kapitani J. Kuk Avstraliyaning sharqiy qirg'oqlariga kelib tushdi va qit'ani Britaniya mulki deb e'lon qildi. XVIII asr oxirida Avstraliyada birinchi ingliz manzilgohi – Sidney shahriga asos solindi. Angliya Avstraliya hududidan mahbuslarni surgun qilish joyi sifatida foydalandi. 1901 yilning 1-yanvarida Avstraliyadan dominion mavqeini olgan Avstraliya Ittifoqi tashkil topdi. I jahon urushi davrida Avstraliya qo'shinlari Fransiya va Yaqin Sharqda olib borilgan harbiy harakatlarda ishtirok etdi. Urushdan so'ng Avstraliya Nauru oroliga ega bo'ldi. 1931 yilda Avstraliya Vestminster statutiga ko'ra tashqi va ichki siyosatda to'la mustaqillikni qo'lga kiritdi. Avstraliya II jahon urushi davrida antigitlerchilar ittifoqi tarafida turib jang qildi. 1967 yilda aborogenlarga barcha fuqorolik huquqlari berildi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Ozod va obod, erkin va faravon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-tom., - T.: «O'zbekiston»,2000 y.
2. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. 15-tom. – T.: «O'zbekiston»,2007 y.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch – T.: «Ma'naviyat», 2008 y.
4. Karimov I.A. Jahom moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: «O'zbekiston», 2009 y.
5. Abdullayev. O. Iqtisodiy geografiya va ekologiya. Namangan 2002 y.
6. Abdullayev O. Mintaqalar va mamlakatlar iqtisodiyoti. – T.: “Yangi asr avlodi” 2009 y.
7. Атлас Мира странни мира в картах и фактах. М. ЗАО «компания», АСТ-ПРЕСС. 1999.
8. Ahmedov E., Sayidaminova Z. O'zbekiston Respublikasi (qisqacha ma'lumotnoma):. 1998 y.
9. Борм З. Испория мировой экономика. – М., 1998.
10. Киреев А.Л. Международная экономика. – М., 1997.
11. Кириллов М.В. Мировая экономика вчера, сегодня, завтра. – М., 1998.
12. Ломакин В.К. Мировая экономика. – Ростов изд-во «Юнити». 2007.
13. Мировая экономика. Экономика зарубежных стран\Под ред. В.П. Колесова, М.И. Осъмовой. – М., 2000.
14. Статистическое обозрение Республики Узбекистан за 2007 год. – Т. 2008.

15. Стрыгин А.В. Мировая экономика. – М., 2002.

16. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.


WWW.NUR.UZ

WWW.ZIYONET.UZ

Австралийский флаг



Австралия



Презентация выполнена Яковенко Н.В. учителем географии УВК "Бекар"

